

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov, B.J.Mavlanov, O.T.Mamatqosimov O'zbekistonda <i>Hordeum Bulbosum</i> L. ning hosildorlik ko'rsatkichlari	137
M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov <i>Eurydema</i> Laporte, 1833 (Hemiptera: Pentatomidae) avlodining mavsumiy rivojlanishi va ozuqa o'simliklariga ixtisoslashuvi	148
A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov Navoiy viloyati Konimex tumanida <i>Ferula varia</i> (Schrenk) Trautv. ning tabiiy resurslari	153
M.X.Akbarova Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining areal tiplari tahlili	166
X.S.Umurzaqova, G.M.Zokirova <i>Euzophera Bigella</i> Zeller, 1848 (Lepidoptera, Pyralidae) turining morfobiologiyasi.....	172
E.A.Ergashev Osh tuzining turli konsentratsiyali eritmalarida kristallanish tuzilishi va ularning buyrak toshi shakllanishidagi ahamiyati	178
S.Q.Kimyonazarov Markaziy Farg'ona mevali bog'larida uchrovchi barg o'rarlar (Lepidoptera: Tortricidae) haqida	183
E.A.Ergashev So'lak tomchilarining kristallanish zonalarida morfologik elementlar va faza o'zgarishlarining shakllanishi	188

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, A.F.Raxmatov Surxondaryo viloyatini lanshaft turlariga ajratish va uning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.....	193
Sh.Z.Jumaxanov, A.M.Toshpo'latov Farg'ona mintaqasi: iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar	198
J.A.Namozov, M.M.Mirislomov Jahonda ekologik turizm rivojlanishining regional tahlili	210
I.K.Aripov Sirdaryo viloyatidagi botqoqlangan aholi punktlari	216

ILMIY AXBOROT

I.Adashev Bo'lajak pedagoglarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	222
Z.A.Ergasheva Ijtimoiy va huquqiy tarbiya uyg'unlashuvining ijtimoiy-falsafiy nazariyalari tahlili	228
I.Adashev Informatsion va analitik kompetentlikni integratsiyalash asosida rivojlantirishning ahamiyati.....	232
V.A.Giyosova Murojaatning sotsiologik tabiati	236
D.M.Zaripova Public relations: the key to Enhancing university global rankings and reputation.....	241
A.I.Tuychiyev Sport va turizm jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining asosiy vositasi	248
S.Sh.Rasulov "Qishloq xo'jaligi axborot kommunikatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron dasturiy ta'minotdan foydalanish metodikasi.....	251
S.A.Rahmonberdiyeva Ingliz va o'zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid terminlarning diaxronik tadqiqi	255
Q.M.Xakimov Voleybol jamoaviy sport o'yinlarining talabalarda hamkorlikda muvaffaqiyatga erishishni o'rgatish bilan bog'liq muammolar	261
D.M.Azimova Buxgalteriya hisobi va audit terminlarining leksik-semantik tadqiqi.....	264



UO'K: 811.111

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI BINO-INSHOOTLAR QURILISHI SOHASIGA OID
TERMINLARNING DIAKRONIK TADQIQI****DIACHRONIC STUDY OF TERMS RELATING TO BUILDING CONSTRUCTION IN
ENGLISH AND UZBEKI LANGUAGES****ДИАХРОНИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ТЕРМИНОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К СТРОИТЕЛЬСТВУ
СТРОИТЕЛЬСТВА, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Rahmonberdiyeva Saida Abdulmuxamat qizi 
Namangan muhandislik-texnologiya instituti PhD

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid terminlarning diaxronikasi, hamda sohaga kirib kelgan yangi terminlarning qo'llanilish tarixi xususida so'z boradi.

Аннотация

В данной статье речь идет о диахронии терминов, связанных со строительством зданий и сооружений на английском и узбекском языках, а также об истории использования.

Abstract

This article is about the diachrony of terms related to the construction of buildings and structures in English and Uzbek, as well as the history of the use of new terms that have entered the field.

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, termin, qurilish materiali, leksik birliklar, atama, inshoot, lug'at.*

Key words: *linguistics, term, building material, lexical units, term, structure, dictionary.*

Ключевые слова: *языкознание, термин, строительный материал, лексические единицы, термин, структура, словарь.*

KIRISH

Oxirgi o'n yilliklarda terminologiyaga oid tadqiqotlarni amalga oshirish mamlakatimiz va xorijiy tilshunoslikda o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda. Bu fan va texnikaning jadallik bilan rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy axborot hajmining ortishi natijasida terminologik leksikaning tobora kengayishiga sabab bo'lmoqda. Natijada turli sohaga oid terminlarni ilmiy jihatdan o'rganish ehtiyojini ya'nada rivojlanishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

V.P.Danilenkoning e'tirofiga ko'ra "Jamiyatda yuz beradigan har qanday jarayonning aksi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoxud muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi natijasida namoyon bo'ladi" [1.9]. Darhaqiqat, jamiyatda yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar terminologiya bilan chambarchas bog'liq, chunki sohalar rivojlangan sari nutq jarayonida turli xil yangi terminlar paydo bo'lib boraveradi. Ular taraqqiy etgan sari terminlar ham murakkablashib boradi.

X.Dadaboyevning ta'kidlashicha, "Hozirgi o'zbek tili muayyan terminologik tizimining boyishi, to'ldirishi va takomillashishining bosh manbasi, boshqa tillarda kechayotganidek, shubhasiz, o'z lug'at boyligi ekanligi ayni haqiqatdir" [2.24-31]. Dadaboyevning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda aytishimiz mumkinki, har bir tilda muayyan terminologik tizimning boyishi albatta turli xil sohalarning takomillashuvi va unda berilayotgan mahsulotlarga talabning oshishi, terminshunoslik sohasini rivojlanishiga va lug'at boyligi ortishiga sabab bo'ladi.

"Terminologiya lug'at tarkibining boshqa qatlamlari va asosiy so'z fondi bilan yaqindan bog'liqligi, avvalo, umumiy tildagi so'z yasash vositalariga oid terminlarni hosil qilishda ko'rinadi", deb yozadi. [8.205-206] Demak, terminologiya tarkibidagi ma'lum bir sohada qo'llaniladigan

terminlarga so'zlarning bog'liqligi shundaki, turli xil so'z yasovchi qo'shimchlar qo'shib o'sha sohada yangi termin hosil bo'ladi. Masalan qurilish sohasida ishlatiladigan payvan, suvoq, beton kabi terminlarga – "chi" affiksini qo'shish orqali masalan: payvand-chi, suvoq-chi, beton-chi singari yangi termin hosil qilish mumkin. Bunda ma'lum soha bilan shug'ullanuvchi shaxsning faoliyatini bildirish bilan birga shu kasb egasi ekanligini ham bildiradi.

V.M.Leychik tomonidan "terminologiya" so'zi asosan ikki ma'noda qo'llanilgan:

1. Terminologiya – muayyan sohalarda maxsus ma'noni ifodalovchi so'z va so'z birikmlarning majmui;

2. Terminologiya – terminlarning grammatik satxdagi o'rni va tilda amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan muayyan qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi lingvistikaning alohida aspekti [7.56-61]. Olim ta'kidlaganidek, har bir sohada ishlatiladigan so'z va so'z birikmalar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, grammatik jihatidan bitta so'z bir nechta ma'nolarni ifodalashi mumkin. Qurilish sohasi terminlari ham bundan mustasno emas. Boshqacha qilib aytganda, ular ushbu sohaning barcha qirralarini namoyon etuvchi vositalardir.

Mazkur sohada tadqiqot olib borgan tilshunos olim Z.Xakiyeva qurilish sohasiga oid terminlarning nafaqat kelib chiqishi, balki ularning paydo bo'lishiga ko'ra davrlarga ajratib chiqqan. Shu davrlarga e'tibor qaratgan xolda taxlillarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, har bir davrdagi termin o'sha davrda saqlanib qolib, faqatgina o'sha davrdagi inshootlarga tegishli bo'lib, vaqtlar o'tgan sayin ularni matnlar va lug'atlarda berilishi saqlanib qolgan. Z.Xakiyevaning e'tirof etishicha, inglizxon xalqning qurilish terminlarining paydo bo'lishi, taraqqiyoti hamda nutqimizga kirib kelishi quyidagi beshta davrlarga bo'lingan:

Birinchi davr – IV asrgacha

Ikkinchi davr – VI-XI asrlar

Uchinchi davr – XII-XVII asrlar

To'rtinchi davr – XVI-XIX asrlar

Beshinchi davr – XX-XXI asrlar kabiladir [10.186]. Olimning davrlashtirishiga asosan dastavval yog'och keyinchalik esa tosh, g'isht, beton, temir armatura kabi terminlar bino barpo etishda bosqichma-bosqich nutqimizga kirib kela boshlagan degan xulosaga keldik.

NATIJARLAR VA MUHOKAMALAR

Olimlarning tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, Birlashgan Qirollik hududida miloddan avvalgi inshootlar va qadimgi neolit davridagi turar joylarning xarobalari saqlanib qolgan. Ular tarkibida qadimgi rim tasarrufiga kirgan vaqtlaridan qolgan mo'jaz villalar, puxta rejalashtirilgan shaxarlar va Adrian (Nadrian) devori kabi muhandislik mo'jizalari haqidagi ma'lumotlar hozirgacha saqlanmoqda. Buyuk Britaniya Rim tarkibidan chiqib ketganidan, taxminan IV asr, keyin arxitektura va qurilish sohasi taraqqiy etish boshlagan. Buning muhim sababi esa Rim imperiyasining asosiy qurilish materiali bo'lgan yog'och (dalillar hanuz mavjud) o'rnini Anglo-sakslar tomonidan qurilish uchun o'ylab topilgan o'ziga xos murakkab qurilish uslubi (sophisticated building style of their own) bo'ldi. Bu uslub tarkibida pishirilgan g'isht, tosh, qum kabi materiallar mavjud edi [9.105]

Mintaqada 1066-yilda boshlangan Normandlar hukumdorligi Buyuk Britaniyaga katta hajmdagi tosh bloklar orqali yangi qurilish texnikasini kiritdi. Natijada stoneblock – tosh blok termini muloqot jarayonidan o'rin oldi. Normand arxitekturasi XI asrdan boshlab Angliya, Uels va Irlandiya hududida qal'a va qasr ko'rinishida paydo bo'la boshlagan. Masalan, London qal'asi markazidagi Oq minora (White Tower) Normand arxitektura namunasidir [3.121]. Dastlabki qurilish materiallari tez buziladigan; masalan barglar, shoxlari va hayvonlarning terilari, keyinchalik, ko'proq loy, tosh kabi bardoshli tabiiy materiallar va yog'och, va nihoyat, sintetik materiallar, g'isht, beton, metall va plastmassa kabilar ishlatilgan. Odamlar birinchi oddiy boshpanalar, chodirlar, g'orlarda va toshlarda yashashgan. Keyinchalik ularning ongi rivojlanib turli xil materiallardan uylar qurishgan. Qadimda odamlar loydan foydalanib turli xil sopol idishlar hamda uylarni qurishda somonli loy hamda toshdan foydalanishgan. Bular ularing eng birinchi qurilish materiallari hisoblangan.

Ilk paleolit davrida yashagan ibtidoiy odamlar tosh qurollar yasagan va ulardan o'zlarining mehnat faoliyatlarida foydalangan. Bu davrning asosiy quroli – cho'qmor bo'lib, u 20 sm uzunlikda va 1 kg dan ortiq og'irlikda, ko'pincha bodomsimon shaklda bo'lgan. Cho'qmor chopqi deb ham ataladi. Cho'qmor shell davrining asosiy quroli bo'lib, u ikki tomonlama simmetriyali qilib, urib to'g'rilash texnikasi (usuli) bilan yasalgan. Cho'qmorning pastki qismi toshni kertib ishlash texnikasi

(usuli) bilan yasalgan bo'lib, u o'tkirlangan, chetlari notekis, egri-bugri shaklga ega bo'lgan. Har qanday tosh shell davri qurolini yasash uchun yaroqli bo'lmagan. Tosh qattiq va tez uchirmalar hosil qilish imkonini berishi kerak edi. Shuning uchun ham, dastlab qurollar yasash uchun asosiy xomashyo vazifasini daryo va dengiz toshlari bajargan. Dengizdan, daryochalardan kvarts, kremen toshlari olib kelinib, ulardan qurollar yasalgan. Ilk paleolitda chaqmoq toshlardan ham ko'plab tosh qurollar yasalgan. Ular boshqa toshlarga nisbatan mo'rt bo'lsada turli shaklga keltirilib, o'tkir, keskir xususiyatga keltirilgan. Ammo chaqmoq toshlar tabiatda ko'p uchramagan. Chaqmoq-toshlardan qurollar yasash quyidagicha amalga oshirilgan: dastlab chaqmoqtosh olingan bo'lib, uning atrofi boshqa bir tosh bilan (u qattiqroq bo'lgan va tosh uchirgich – bolg'a vazifasini bajargan) urib uchirilgan. Uning o'rni esa keskir va o'tkir shaklga aylangan. Tosh qurollar yasashning ushbu usuli – toshni kertib ishlash texnikasi deb atalib, ushbu usul bilan shell davrida dastasiz cho'qmorlar yasalgan. Natijada soha leksik qatlamiga yangi terminlar kirib kela boshladi. Masalan: *flint-chaqmoq tosh, edge stone-qirrali tosh, triangular stone-uchburchaksimon tosh, white stone-oq tosh, sharp stone-o'tkir tosh, marble stone-marmar tosh*.

Shuningdek, tosh qadimda Britaniyada og'irlik o'lchov birligi sifatida ham ishlatilgan. 1389-yilda qirollik nizomi tabiiy toshini 14 funt, jun qopini esa 26 ta tosh qilib belgiladi. Variant og'irlikdagi savdo toshlari saqlanib qolmoqda, masalan, 5 funtlik shisha tosh. Tosh hali ham Britaniyada odamlar va yirik hayvonlarning vaznini belgilash uchun keng qo'llaniladi.

Birlashgan Qirollik va Irlandiyada tosh an'anaviy ravishda vazn o'lchash uchun ishlatilgan. Angliya va Shimoliy Evropaning boshqa german tilida so'zlashuvchi mamlakatlari kabi boshqa mamlakatlar ilgari savdo maqsadlarida ko'plab standartlashtirilgan toshlar dan foydalanilgan. Shunday qilib, ba'zi toshlar raxit kasalligini davolashda ishlatilgan. Bundan ko'rinib turiptiki, demak tosh nafaqat qurilishda balki o'lchov birligi sifatida shuningdek kasalikka davo sifatida ham qo'llanilgan.

Qadimda bino qurish uchun ishlatilgan materiallar va asboblari boshqa davlatlar kabi ingliz terminologiyasida ham ko'payganligi sababli bu sohaga kirib kelgan yangi terminlar o'rganishga to'g'ri keldi. Masalan, *arch-arka, chimney- mo'ri, cupola- gumbaz yoki tom, dormer-tomning tasviriy ishlangan tuynuksimon oynasi, pendentive- burchaksiz shakl, buttress- tirgak (devorni ushlab turishi uchun), pediment-peshtoq, balconet-balkon, keystone- arkaning eng yuqori nuqtasiga joylashuvchi tosh, basement- yerto'la, capital- bosh ustun*.

Hozirgi zamonaviy bino-inshootlar qurilish texnologiyasi asta –sekinlik bilan taraqqiy eta boshladi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarda eng ko'p tarqalgan qurilish materiallari metal, tosh va g'isht, armatosh, temirbiton, yog'och va plastmassalardan iboratdir.

Bizga ma'lumki, tosh va g'isht eng qadimgi qurilish materiallari hisoblanib, tuzilishi oddiy, sodda asbob-uskunalar asosida tayyorlangan asrlar davomida tosh asosiy qurilish materiali bo'lib kelgan. Tosh davrida juda ko'p inshootlar qayta ishlanmagan toshdan qurilgan.

Qurilish tarixini o'rganish hozirda har qachongidan ham ko'proq insoniyatning barqaror kelajagi shakli haqidagi hozirgi munozaralarning markazi hisoblanadi. Odamlar avvallari turli xil qurilish materiallaridan binolar ko'priklar, amfiteatrlar, to'g'onlar, yo'llar, kanallar va boshqa inshootlar qurdilar. Shuning uchun ham hozirgi kunda ishlatiladigan qurilish asboblari va materillari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Yangi materiallar, yangi asbob-uskunalar va jihozlar paydo bo'lishi bilan ularni ko'rsatish zarurati tug'ildi, yangilari paydo bo'ldi.

Biz yuqorida Buyuk Britaniya bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida ko'rib chiqdik. Endi esa mamlakatimizda paydo bo'lgan bino-inshootlar qurilishi terminlarning tarixiy negizlari haqida faktik ma'lumotlarni keltiramiz.

Tarixdan ma'lumki, ona yurtimizda jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutaffakir, ulug' allomalar va donishmandlar yashab o'tgan. Biz tadqiq markaziga olib kirmoqchi bo'lgan bino inshootlari qurilishi sohasi terminlari ham o'ziga xos shakllanish, paydo bo'lish va soxaviylashtirish tarixiga ega bo'lib, ularning yozgan noyob durdona asarlarida va XX asrgacha bo'lgan davrda yaratilgan qo'lyozmalarda ham qo'llanilgan o'rinlarga duch kelishimiz mumkin. VIII-IX asrlardayoq bizning yurtimizda "Baytu ul-hikma (Donishmandlar uyi) deb atalmish fanlar akademiyasi tashki etilishi, oradan bir muncha vaqt o'tib, 1010-yilda esa Ma'mun akademiyasida qilingan buyuk kashfiyotlar butun dunyo ahlini lol qoldirgan. Lekin, manbalardan ma'lumki,

ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy va madaniy merosni to'liq shaklda saqlab qolishning imkoni bo'lmagan. Chunki ular qilgan ishlarni ayovsiz janglar natijasida bosqinchilarlar tomonidan talon-taroj qilingan. Natija barcha sohalar singari qurilish sohasini shakllanishi va tashkil topish tarixini, mazmun mohiyatini, o'tmishda qanday leksik birliklar bilan nomlanganligini ilmiy jihatdan o'rganishga va tadqiq etishga taqozo etmoqda.

O'zbek tili qurilish sohasiga oid terminlar bo'yicha mavjud bo'lgan tarixiy manbalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sohaga oid leksik birliklarning tavsifi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", matematik ifodasi "Tahdid nihoyot ilamokin li tashih masofot ilmasokin", shakliy ifodasi Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-Haqoyiq", nasriy ifodasi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Alisher Navoiyning "Hazoyin ul-maoniy", "Hayrat ul-abror", shayx Sulaymon Buxoriyning "Bado'-l-ul lug'at" va boshqa ko'pgina mutaffakirlar asarlarida uchramiz. Quyida biz asosan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", asarida qo'llanilgan qurilish termin va atamalarini misollar asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Bugungi kunda Mahmud Koshg'ariyning dunyoga ulug' tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, etnograf, geograf va boshqa ko'p fanlardan yaxshi xabardor bo'lgan qomusiy olim sifatida taninitishga sababchi bo'lgan "Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asarida o'sha davrdagi qardosh xalqlarning kundalik muloqotida qo'llanilgan qurilish hamda arxitektura atamalarini uchratishimiz mumkin. Bu atamalar maxsus terminologiya sifatida emas, balki o'zaro muloqot mahsuli bo'lib, nutqda faol qo'llaniladigan tushuncha sifatida tahlil qilinadi. Olim mazkur asarida turkiy xalqlarning tillaridagi ko'plab so'zlarning ma'nosini o'sha davr tamoyiliga ko'ra arab tilida izohlab berdi. O'z fikrlarini dalillash uchun turkiy xalqlarning maqollaridan va badiiy adabiyoti namunalaridan keng va o'rinli foydalandi. Asarda uch yuzga yaqin maqol va matallar, o'nlab she'riy parchalar keltirilgan.

Asarning birinchi qismi [4.499] da keltirilgan atamalar sirasiga yer – ba'zi lug'atlarda *jër* (*jer*) shaklida ham qo'llanilgan bo'lib, bugungi adabiy tilda yer, qipchoq shevasida esa *jer* shakli ishlatiladi; *ul* – devor va uylar poydevori; *og'* – chodir (o'tov)ning yuqori qismi bo'lgan *uvuqlar*, ya'ni chodirning *yog'ochlari*; *ashu* – qizil tuproq, qizil kesak; *endak* (*og'uzcha*) – *sath*, bir narsaning yuzi, ust tomoni; *arquq* – ustun, ikki devor yoki ustun orasiga qo'yilgan *yog'och*; *arzutal* – mo'yni to'ktirishga qo'llaniladigan aralashma, *ohak*, *zirnih*; *eshiklik* – ostona va eshik uchun ishlatiladigan *yog'och*; *yokaklik* – sandiq yasaladigan *yog'och*; *yokaklik tam* – ustiga qubbalar ishlangan devor; *irraldi* – arralandi. *Jig'ach irraldi* – *yog'och arralandi*; *temyor* – temir; *baliq* (*arg'ucha*, *o'g'uzcha*) – loy. Bu atamaning *titik* varianti ham bor; *siruq* – chodirning ustuni; *kerimi* – ziynat uchun devorlarga tutiladigan narsa, *kirpich*; *kerag'o* – chodir. Turkmanlar chodir deb, ko'chmanchi aholi esa qishki uy deb atashgan; *qisg'ach* – *qisqich*, ombir; *kerpich* – *kirpich*, g'isht. *Bishiq kerpich* – pishiq g'isht; *tubraq* – tuproq; *ev* – uy; *irpadi* – arraladi; *qum(chigilcha)* – qum; *qabug'* – eshik; *bechko'm* – uyning shipi; *bag'ram* qum – elangan qum. Mayin qum. Qashqar bilan Yorkent o'rtasidagi qumlikka Bag'ram qumi deyiladi. *qarshi* – shox qasri. Shu bilan bir qatorda qarshi, teskari ma'nolarni ham anglatgan. *qapg'a* – qopqa, darvoza kabilardir.

Lug'atning ikkinchi qismidagi termin hamda atamalarning aksariyati turkiy qabila va urug'lar tilda ishlatilgan bo'lsa-da, bugungi kunda bunday terminlarni ishlatish tushunarsiz holatga kelgan. Hozirgi leksik fonda saqlanib qolganlari ham fonetik jihatidan o'zgartilib iste'molga kiritilgan.

"Devonu lug'otit turk" ning ikkinchi qismi [5.427] da ishlatilgan atamalar asosan harakat ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar bo'lib, unda fe'llarning turlari haqida to'liq ma'lumot berilgan. Shuning uchun ham qolgan ikki qismdan farqli hisoblanadi. Quyida asarda qo'llanilgan bino inshootlar qurilishi sohasiga oid terminlarga misollar keltirib o'tamiz: *Ko'rgak* – kemachalarning eshkaklari. Shu bilan bir qatorda belkurak ma'nosini ham anglatadi. *Qazlindi* – qazildi. *Jer* qazlindi – yer qazildi. *To'zlo'ndi*, *to'zo'ldi*, *to'zdi* – tekislandi (yerga nisbatan). Bu atamaning to'g'rilandi, to'g'ri bo'ldi kabi ma'nolari ham mavjud. *To'rpo'ldi* – to'g'ri bo'ldi. *Jig'ach to'rpo'ldi* – *yog'och randalanib tekislandi*. *Kertishdi* – kertishdi (*yog'ochga nisbatan*). Bu atamaning bahslashdi ma'nosi ham muloqotda qo'llanilgan. *Bug'rushdi* – kesishdi (*yog'ochga nisbatan*); *kesto'rdi* – ortirma nisbat shakldagi fe'l bo'lib, kestirdi (kesmoq) ma'nosini anglatadi. Bu fe'l kesmoq fe'li bilan qo'llanuvchi barcha ismlar uchun aynan shu ma'noga ega. *Qazturdi* – qazimoq fe'lining ortirma nisbatda qo'llanilgan shakli bo'lib ariq qazdirdi, chuqur qazdirdi, o'ra qazdirdi kabi qoliplarda qo'llaniladi. Asarda XI asrda bu fe'lning qazildi varianti qo'llanilganligi keltirib o'tiladi. Bu fe'lning qazdi, kezdi

ILMIY AXBOROT

variantlarini ham, lug'atda uchratishimiz mumkin. *Tuzg'urdi* – o'zlik nisbatdagi bu fe'l turg'izdi, tikladi, qurdi ma'nolari izohlangan. Bu atama uy va shunga yaqin bo'lgan qurilish inshootlarini qurish ma'nosida qo'llanilgan. *Telto'rdi* – teshtirdi. Bu fe'l termin tom, devorni teshtirdi ma'nolarida qo'llanilgan. *Bichturdi* – kestirdi (yog'ochga nisbatan); *bezandi* – insonga nisbatan o'ziga oro berdi, yasandi ma'nosida hamda uy yoki shunga o'xshash inshootlarga nisbatan ko'rkamlandi, bezatildi ma'nolarida qo'llanilgan. *Chapildi* – chapildi, suvaldi ma'nolarini anglatib uyga nisbatan uying suyuq loy bilan suvab chiqish nazarda tutilgan. Hozirgi kunda ba'zi shevalarda bu so'z chaplandi shaklida ham qo'llaniladi. *Teldi, telishdi* – teshdi, teshishdi (devorga nisbatan); *teldi* fe'li chorvachilikda qo'zichoqni emizish uchun sovlug'qa qo'shdi ma'nosida ham qo'llanilgan.

Yuqoridagi misollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bino-inshootlari qurilishi sohasiga oid bo'lgan harakat ma'noni ifodalovchi fe'llarning aksariyati asarda fe'lning noaniq shakli (-moq)da emas, balki ma'lum nisbat shakllarida ifod etilgan. Bundan ko'rinib turiptiki, Mahmud Qoshg'ariy atamalarni xalq tilida qanday eshutilgan bo'lsa, ana shu shaklda lug'at tarkibiga kirgizib ketavergan.

“Devonu lug'otit turk” ning ikkinchi qismi tahlilida ko'rdikki, birinchi qismida ismlar guruhiga kiruvchi atamalar yetakchilik qilsa ikkinchi qismida o'sha davrda xalq tilida iste'molda bo'lgan harakat ma'nosini ifodalovchi atamalar tarjima va izohi asosiy o'rinni egallaydi. Asarning uchinchi fasli [6.466] ham o'ziga xos uslubda shakllantirilgan bo'lib, bunda qolgan ikkinchi qismlarda ma'nosi keltirilmagan istilohlar yoritilgan. Quyida biz qurilish sohasiga doir termin va atamalar bilan tanishtirib o'tamiz: *Yig'ach* –yog'och; *Yanuldi* – *qayraldi*, o'tkirlandi. Uy-ro'zg'orda ishlatiladigan o'tkirlanishga ehtiyoj sezadigan har qanday metal buyumga nisbatan ishlatilgan. *O'nuldi*–*yo'nildi* (yog'ochga nisbatan); *Yo'laldi*–*tiklandi*. Tomni ustun bilan tiklash ma'nosini ifodalangan. *Ko'tyo*–*tom*; *seryo*–*uyda eshik ustiga qilinadigan raf.*, unga har xil buyumlar qo'yiladi; *kecha* (o'g'uzcha)–*namat*; *to'ra*–*uyning to'ri, yuqori qismi*; *qiydi* – *kesdi*(yog'ochni) ; *sidi* – *sindirdi* (yog'ochga nisbat). Bu atamaning *yengdi, g'alaba qozondi* ma'nosi ham mavjud. *Yig'ach* – *o'n ikki ming qadam masofaga teng bo'lgan yer*. *Farsax* nomi bilan ham ataladi; *Kip*–*qolip*. Bu termin g'ish quyish uchun mo'ljallangan qurilma nomiga nisbatan ham ishlatilgandigan; *Qalima* – *to'rt ustunli ochiq shiypun*; *to'rpidi*–*yo'nmoq* (yog'ochga nisbatan); *kipitladi*–*qulfladi*; *tarusladi* – *uyning tepasini yopdi,berkitdi*; *shebing*(chigilcha)–*yo'g'on temir so'yil*; *qangli*–*ustiga og'ir yuk ortiladigan ikki g'ildirakli arava*. Qipchoqlarda katta bir odamning nomi ham shu nom bilan atalgan; *alpang*–*suyuq loy*; *yortman*–*uy usti, tom*; *turqladi*–*o'lchadi*. *O'lchanadigan barcha narsa. Shu bilan bir qatorda devor ham*.

“Devonu lug'otit turk” asarida berilgan bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- bino-inshootlari qurilishiga sohasiga tegishli bo'lgan termin hamda atamalar turkumlanish jihatiga ko'ra ot va fe'li qisimlardan iboratdir;
- otlarning aniq ot shakli, fe'llarning esa ma'lum bir nisbat shaklda berilishi kuzatildi;
- shakl va ma'no jihatiga ko'ra sinonim (baliq-titik(loy ma'nosida), omonim(qarshi, qangli, kertishdi), paronim (yanuldi-o'tkirlandi; o'nuldi-yo'nildi) kabi turlariga tegishli bo'lgan terminlar izohlab berilgan;

XULOSA

Xulosa o'rnida hozirgi kunda bino-inshootlari qurilishi sohasiga oid bunday terminlar qo'llanilmaganligi tufayli aholi nutqida tushunarsiz holatga kelgan. Shuning uchun ham bu atamalar bir ma'nolilik, qisqalik, aniqlik, sohaviylik singari jihatlarini hisobga olgan holda yuqorida keltirilgan so'zlarni termin sifatida bilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам// Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики.-М.: МГУ, 1971. – С 9
2. Дадабоев Х. Ҳозирги ўзбек тили қурилишида ўзбек тилининг ўрни// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент,2015. – Б 24-31
3. MacGibbon, David; Ross, Thomas; Ross, Thomas (1896). The Ecclesiastical Architecture of Scotland: From the Earliest Christian times to the Seventeenth Century. Vol. 1. D. Douglas.
4. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk (Turkiy so'zlar devoni) (tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S.M). – Jild 1. – Toshkent: O'ZSSR FA, 1960. – B.499
5. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk (Turkiy so'zlar devoni) (tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S.M). – Jild 1. – Toshkent: O'ZSSR FA, 1960. – B.427

6. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk (Turkiy so'zlar devoni) (tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S.M). – Jild 1. – Toshkent: O'ZSSR FA, 1960. – B.466
7. Лейчик В.М. Номенклатура-промежуточное звено между терминами и собственными именами// Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж. 1974. – С. 56-61.
8. Пиотровский Р.Г. К вопросу об изучении термина // Татаринов В.А.История отечественного терминоведения. Т. 2.: Направления и методы терминологических исследований. Очерк и хрестоматия. Кн.1. -М, 1995. – 333с. – С.205-206.
9. Tinniswood, Adrian, AHistory of British Architecture, bbc.co.uk, archived from the original in 2010
10. Хакиева З.У. англоязычная терминология строительства и строительных технологий: структура, семантика и динамика развития. Дисс. ... канд филол. Наук. 2013. Стр 186.